

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO`JALIK  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO`JALIGI INSTITUTI**

**PEDAGOKIKA, PSIXOLOGIYA VA O`QITISH METODIKASI  
KAFEDRASI**

# Kurs ishi

**MAVZU: HADIS ILMINING PAYDO BO`LISHI**

**Bajardi:**210 guruh talabasi Norova O

**Tekshirdi:** Boboqulov Z.

***SAMARQAND-2015***

## MUNDARIJA

|           |                                                                                                                     |           |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
|           | <b>KIRISH.....</b>                                                                                                  | <b>3</b>  |
| <b>I</b>  | <b>HADIS VA HADISSHUNOSLIK ILMINING PAYDO BO'LISHI.....</b>                                                         | <b>5</b>  |
|           | 1.1 <i>Hadis ilmining paydo bo'lishi. ....</i>                                                                      | <b>5</b>  |
|           | 1.2 <i>Hadisshunoslik va ta'lim-tarbiya. ....</i>                                                                   | <b>7</b>  |
| <b>II</b> | <b>HADISSHUNOS OLIMLARNING FAOLIYATI. SO'FIYLIK.....</b>                                                            | <b>9</b>  |
|           | 2.1 <i>Hadis ilmining rivojlanishida Imom-al Buxoriyning o'rni.Imom-al Buxoriy hadislari, ularning tahlili.....</i> | <b>9</b>  |
|           | 2.2 <i>Imom-at Termiziyning hadislari va ularning ahamiyati.....</i>                                                | <b>13</b> |
|           | 2.3 <i>So'fiylik ta'limot va uning oqimlari.....</i>                                                                | <b>20</b> |
|           | <b>XULOSA .....</b>                                                                                                 | <b>25</b> |
|           | <i>Foydalanilgan adabiyotlar .....</i>                                                                              | <b>26</b> |

## KIRISH

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Islom va uning asosiy ta'limotini mujassamlangan «Qur'on karim»  
dai sonni hamaqliy, hamaxloqiy, ham jismoniy shakllantirishda,  
bir so'z bilan aytganda,  
komil insonni tarbiyalashda muhim manba ekanligini amoyon bo'ladi.

«Xadis» va «sunna» suzlarini birmo'noni anglatib,  
Rasulullohning xayotidagi faoliyatidagi diniy va axloqiy kursatmalarini xakidagi  
voyalardan iborat

Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talabetiladigan insoniy faz  
ilatlarak settirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik,  
ochiq ko'ngillilik, ota-onavakatalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik,  
hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-  
hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zarodo'st, tinch-  
totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundantashqari,  
insonning o'zini yomon illatlardan tiyish,  
yaxshilik sari intilish kerakligi borasida gapand-  
nasehatlar ham o'zifodasini topganki,  
bularning barchasi qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadivakomil inso  
nni shakllantirish mezonis analadi. Avvalo,  
Islom aqidasi gabin o'z har birmusulmoni yomonli bo'lishi kerakdir.

VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun «oltin davr» xisoblanadi. Islom  
dunyosining eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishochli tuplam  
(as-saxix as-sitta)ni yaratgan muxandislar xam vatondoshlarimiz bulib,  
xadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular: Abu

Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810)-256 (870); Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819)-261 (874); Imom Iso Muxammad ibn Iso at-Termiziy 209 (819)-279 (892); Imom Dovud Sulaymon Sijistoni 202 (817)-275 (880); Imom Axmad al-Nasoniy 215 (820)-303 (915); Imom Abu Abdullax Muxammad ibn Yazid ibn Majo 209 (824)-273 (886)kabi ollamalardir.

**Mavzuning maqsadi:** hadis ilmini o'rganishdan maqsad o'quvchi yoshlarni vatanga, oilaga mehr-maxabbatli bo'lish, sarb-toqat tushunchalarini anglash, insonparvar bo'lish, Islom va uning asosiy ta'limoti mujassamlangan «Qur'oni karim» da insonni ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy shakllantirishda, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba sifatida o'rganish.

**Mavzuning vazifasi:** mavzuning maqsadini amalgam oshirish uchun quyidagi vazifalarni yechish masalalari qo'yiladi:

- *Hadis ilmining paydo bo'lishi.*
- *Hadisshunoslik va ta'lim-tarbiya.*
- *Hadis ilmining rivojlanishida Imom-al Buxoriyning o'rni.Imom-al Buxoriy hadislari, ularning tahlili.*
- *Imom-at Termiziyning hadislari va ularning ahamiyati*
- *So'fiylik ta'limoti va uning oqimlarini o'rganish.*

**Kurs ishining tuzilishiva hajmi:**Kurs ishi kirish, 2 bob va 5 banddan hamda xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **I. HADIS VA HADISSHUNOSLIK ILMINING PAYDO BO'LISHI**

## **1.1. Hadis ilmining paydo bo'lishi**

Islom dini ta'limotida “Qur'oni karim”dan keyin asosiy manba hadislaridir. Hadis ilmi bilan shug'ullanish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo'tabar shaxslargina tartib bergan. Ma'lumotlarga qaraganda, VIII-XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Biz bu manbalarning ko'pi bilan tanish emasmiz. Keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-Jome' as-sahiq”, “Al-adab al-mufrad” asarlari tarjima qilinib nashr etildi. At-Termiziyni “Ash-Shamoili an-Nabaviya” asari hamda ularga yozilgan so'zboshilar, ba'zi kichik risola va maqolalar chop etildi. Biz ana shu manbalarga tayangan holda fikrlarimizni bayon etamiz.

“Hadis” yoki “sunna” so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zlari pand-nasihatlarini uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz Qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning hadislarini Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo'tabar kishilardan bo'lib, butun imrini hadislarini yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan.

Lekin, hadislarini yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarini to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar ibn Abdulazizekanligini ta'kidlaydilar.

Hadislarini birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar Rabee bin Sabeh, Said bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb ko'rsatiladi.

VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun “oltin davr” xisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislarining qay darajada to'g'riligi, qanday manbalarga tayanganligi tadqiq etila boshlanadi. Chunki, ba'zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo'la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarini tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarini yoddan biluvchi haqiqiy bilimdon, o'tkir muhofazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarining haqiqiy, ishonarli, ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida hadislar tekshirilib, asl holiga qaytarilib, yozib yig'ila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab irod etganlar. Bular Abud Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810) - 256 (870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819) - 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824) - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817) - 275 (880), Imom Ahmad an-Nasoiiy 215 (830) - 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824) - 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar.

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

2.Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

3.Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnan”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon-Sijistoni tomonidan yozilgan “Sunnat”.

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-kabir”.

6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnan” kabi to'plamlardir.

Xadis ta'lif etishda asosan, uch yo'nalish paydo bo'lgan

1.“Musnad” yo'nalishi.Bunda turli mavzudagi hadislar, bir joyda keltirilib, alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal hadislarini ana shu yo'nalishda to'plaganlar.

2. “Sahih” (ishonchli) yo'nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solganlar. Bularga to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3. “Sunnan” yo'nalishidagi hadislar. Mazkur yo'nalishdagi hadislar to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda, “zaif” hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasosiy, ibn Mojjarlar shunday yo'nalishdagi hadislarini to'plagan muhaddislar.

Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalardir.

## **1.2.Hadisshunoslik va ta'lim-tarbiya**

Hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi

borasidagi pand-nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezonini sanaladi. Avvalo, Islom aqidasi binoan har bir musulmon iymonli bo'lishi kerakdir. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, hadisning ham birinchi kitobi iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bo'lmog'ining uch sharti ko'rsatiladi:

to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;

kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;

kishi o'z ustida ishlamoq va o'zini ibodat va itoatga chiniqtirmoq.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deb, iymon belgilari sanab o'tiladiki, bularning har biri inson ma'naviy qiyofasining mukammallashuviga ta'sir etuvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: “qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur”; “O'zi yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz” (3-,4-, 6- boblar); “Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

-insofli va adolatli bo'lmoq;

-barchaga salom bermoq;

-kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq”.

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lmagan munofiqlik illatlari ham ko'rsatib o'tiladi: Rasulloh sallallohu alayhi vasallam aytganlar: “quyidagi to'rtta illat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lg'aydir, kimdagi ulardan bittasi bo'lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir illati bor ekan, deyiladi:

-omontga xiyonat qilgaydir;

-so'zlasa yolg'on so'zlagaydir;

-shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;

-urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilgaydir”

## **II. HADISSHUNOS OLIMLARNING FAOLIYATI. SO'FIYLIK**

### **2.1. Hadis ilmining rivojlanishida Imom-al Buxoriyning o'rni**

“Sahih” yo'nalishining asoschisi, eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abduloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy hadis ilmida “Amir ul-mo'minin”. “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. U 810 yil, 13 mayda (ba'zi manbalarda 810 yil, 20 iyulda) (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan yetim qolgan. Ukuv muassasasida savod chiqargan, 10 yoshidanoq arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy hadis ilmini katta qiziqish bilan o'rgana boshlaydi. Yoshlik chog'idan boshlab turli roviylardan eshitgan hadislarni yodlab boror edi. Abdulloh ibn ol-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar to'plagan hadislarni yod olgan, hadis rivoyatchilari haqidagi bahslarda qatnashgan.

Al-Buxoriy 825 yilda, o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo'lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bag'dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo'lib, safar jarayonida muhaddislardan hadis o'qir edi. Olti yil Hijozda qolib, hadis ilmidan ta'lim oladi. Shu bilan birga, Damashk, Qohira, Basra, Bag'dod shaharlarida mashhur olimlardan fiqh olmidan dars oladi, o'zi ham bahs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi.

Imom Buxoriy iste'dodli, o'tkir muhofazali, ziyrak olim bo'lgan. "Manbalarga ko'ra, Bag'dodda istiqomat qilgan paytida ko'pincha oyning nurida ijod qilib, qorong'i kechalari sham yorug'ida kitob o'qir ekan. Agar tunda behosdan biror-bir fikr-mulohaza kelib qolsa, shamni yoqib darhol fikrini qog'ozga tushirar, shu taxlitda ba'zi kechalari shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan".

Rivoyatlarga ko'ra "U qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaverardi". Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. O'z shogirdlaridan Amir ibn Fallos "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis, albatta ishonchli hadis emasdur", - deydi. Ustozi Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziyning aytishicha, "Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas".

Imom Buxoriyning o'tkir zehni haqida shunday rivoyat keltiriladi: "Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: "Imom Buxoriy bizlar bilan ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: "Sen nega hadislarni yozmaysan?" - deb ta'na qilgan vaqtimizda: "Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og'zidan yodlab olayotirman", - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarni bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadisalarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan

bo'ldik”.

Imom Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini to'qsonga yaqin deb ko'rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-g'artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Rahavayx nomi bilan mashhur imom Ishoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniylar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Hajjohlarga o'z vaqtida ustozlik qilgan.

Imom Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining yetuk olimi bo'lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o'rgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisidan hadis eshitgan. Undan to'qson ming kishi ishonarli hadisni to'plagan, 100 ming “sahih” va 200 ming “g'ayri sahih” hadislarni yod olgan. (N. Raximjonov “Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli.” BMI 2005.)

Imom al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyiga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul emaydi va: “Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, tarbiyalanuvchilarni

(ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javod beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhalliy munosabatlariga rahna tushadi. Bunga ba'zi hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o'z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yo'lga chiqadi. Ammo Samarqandga yaqin Haftang qishlog'ida (hozirgi Poyariq tumani) betob bo'lib qoladi va shu yerda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi

**Imom-al Buxoriy hadislari, ularning tahlili**

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qolirgan. Uning “Al-Jome' as-sahih” (“Ishonchli to'plam”), “Al-adab al-mufrad”, “At-Tarix al-kibor” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-sag'iyr”, (“Kichik tarix”), “Al-qiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib o'qish”), “Vaf'ul-yadini fi-s-Saloti” (“Namozda ikki qo'lni ko'tarish”) kabi ishlari mavjud bo'lib, qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Amma “At-Tarix al-avsat” (“O'rta tarix”), “At-Tafsir al-kabir” (Katta tafsir), (“Al-Jome' al-kabir” (“Katta to'plam”), “Kitob-ul-hiba” (“Hadya kitobi”) nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum, lekin bular bizgacha yetib kelmagan. Shubhasiz, bu asarlaridan eng yetuk, shoh asari “Al-Jome'-as-sahih”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham dunyoda mashhur. 4-jildan iborat mazkur kitobda payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam hadislaridan tashqari, islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng “sahih”

hadislar kiritilgan bo'lib, takrorlanmaydigan 4000 xadisdan iboratdir. Bu kitob islom ta'limotida Qur'oni karimdan keyingi manba hisoblanadi. Ma'lumki, Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi ta'limot. Shu sababli Ko'r'oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targ'ib etilgan.

## **2.2. Imom-at Termiziyning hadislari va ularning ahamiyati**

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxonlaryo viloyatining Sherobod tumanida) qishlog'ida to'g'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning asli marvlik bo'lgan deb qayd etadilar.

U bolaligidan ilmga qiziqqan bo'lib, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan.

At-Termiziy 950 yildan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijozda bo'lib, Makka va Madinani ziyorat qiladi, Iroq, Xurosonda hadis ilmi, fiqh, ilmi al-qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mana shu safarda at-Termiziy hadislarni to'play boshlaydi. Hadis ilmini o'rganishda mashhur muhaddis at-Termiziy ustози al-Buxoriyni alohida hurmat qiladi. Hatto manbalarda at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud. At-Termiziyning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli al-Buxoriy ham uni faqat shogird sifatida emas, o'ziga hamkor do'st sifatida ham hurmat qilgan.

At-Termiziy uzoq safarida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qilishga boshladi. U 863 yilda o'z vataniga qaytdi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim berib, xam kitoblar yozdi.

At-Termiziyning o'ndan ortiq asarlar yaratganligi ma'lum. Bular “Al-Jom'e as-sahih” (“Ishonchli to'plam”), “Ash-Shamoil an-Nabaviya” (“Payg'ambarning alohida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida”) asarlari mashhurdir. At-Termiziyning yozib qoldirgan asarlaridagi hadislar ham al-Buxoriy hadislariga kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlik, mehr-shafkat, kattalarga, ota-ona va qarindoshlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Imom Buxoriyning o'tkir zehn egasi ekanligini qo'yidagi misoldan ham bilish mumkin.

«Xadis» va «sunna» suzlari bir mo`noni anglatib, Rasululloxning xayoti va faoliyatida diniy va axlokiy kursatmalari xakidagi rivoyatlardan iborat. Xadislarni dastlab yozib borildimagan. Chunki payg'ambarimiz Qur`oni Karim nozil bulgan vaktlarda arab bulmagan kishilarning, xadislarni Qur`on oyatlaridan deb uylashlaridan chuchib, uni yozib berishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin Payg`ambarimiz Muhammad Salalloxu Alayxi vassallam huzurida sahobalar bo`lib, ular Rasuli akramdan eshitgan xadislarni yodlab borganlar. Masalan, Xazrati Abu Xurayra shunday mu`tabar kishilardan bulib, butun umrini xadislarni yodlashga baxsh etgan. Mazkur xadislartugri, ishonarli (saxix) bulgan.

Lekin, xadislarni yod olgan kishilar tobora kamaya borgani xamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli xadislarni tuplashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni

boshida turgan dastlabki xalifa Umar Ibn Abdulaziz ekanligini ta`kidlaydilar.

VIII-IX asrlar xadis ilmi uchun «oltin davr» xisoblanadi. Islom dunyosining eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishochli tuplam (as-saxix as-sitta)ni yaratgan muxandislar xam vatondoshlarimizbulib, xadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular: Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810)-256 (870); Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819)-261 (874); Imom Iso Muxammad ibn Iso at-Termiziy 209 (819)-279 (892); Imom Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817)-275 (880); Imom Axmad al-Nasoniy 215 (820)-303 (915); Imom Abu Abdullax Muxammad ibn Yazid ibn Majo 209 (824)-273 (886)kabi ollamalardir.

«Saxix» yunalishining asoschisi, eng etuk va mashxur muxaddis Abu Abdullox Muxammad ibn Ismol al-Buxoridir (825-870). Imom Buxoriy xadis ilmida «Amir ul-muminin», «Imom al-muxadisiyn» («Barcha muxadislarning peshvosi») degan sharaflı nomli sazovor bulgan.

Imom al-buxoriy juda boy va ijodiy meros kaldirgan. Shubxasiz, bu masalalardan eng etuk, shox asarlari «Al-Jome` as-saxix»-dir. Bu asar «Saxix al-Buxoriy» nomi bilan xam dunyoda mashxur.

Imom Buxoriy 4jildan «Al-jome` as-saxix» asarining bir jildida odob xakidagi xadislarni ja`m etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob,-axlok va tarbiyasi masalalariga bagishlangan «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») maxsus xadislar tuplamini yaratadi. Bu asar 644 bobdan bayon etilgan 1322 xadisdan iborat.

Mashxur muxanddislardan biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy (824-992) bulib, ularning utkir zexni, xotirasi, yodlash kobiliyatining kuchliligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy xam ularni fakat shogird sifatida emas, xamkor dust sifatida xamxurmat kilganlar.

At-Termiziy xam undan ortik asarlar yaratib, ayniksa, «Al-jome` as-saxix» («Ishonchi tuplam»), «Ash-Shamoil an-Nabaviya» (Payg`ambar-larning aloxida fazilatlarini), Al-Ilalfi-al-xadis» («Hadislardagi illatlar va ogishlar xakida») asarlar mashxurdir.

Xadislarda insanning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks etiladigan bulib, bular mexr-okibat kursatish, saxiylikb ochik kunglilik, ota-ona va kattalarga, karindoshlargi muruvvat, gamxurlik, xurmat, vatanga muxabbat, mexnat va kasb-xunarni uluglash, xalollik, poklik, uzaro do'st, tinch-totuv bulish va boshkalardan iboratdir. Bundan tashkari, insonning uzini illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasixatlar xam uz ifodasini topganki, bularning barchasi Qur`oni Karim kursatmalaridan kelib chikadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.

Avvalo islom akidasiga binoan xar bir musulmon iymonli bulishi kerakdir. Qur`oi Karimda ta`kidlaganidaek, xadisning xam bitinchi kitobi Iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bulmogining uch sharti kursatiladi:

-to`g`ri e`tikodli bulmoq;

-kishilar bilan yaxshi munosabotdabulmok;

-kishilar uz ustida ishlamogi va uzining ibodat va itoatga chaqirmogi.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortik shoxlari bor deb, iymon belgilari snab utiladiki, bularning xar biri inson ma`naviy kiyofasining mukammalashuviga ta`sir etuvchi xislatlardir. Bular kuyidagilardan iborat: “Kuli bilan va tili bilan uzgalarga ozor bermagan kishi musulmondur”, “Uchta xislatni uzida mujassam kilgan kishining iymoni mukammal bulgaydir .

Xadislarda insonning ma`naviy kamoloti mezxoni, uning tafakkur doirasi, dunyokarashining kengligi, ilmiy bilimlarini kay darajada egallagani, uz bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi

shaxs bulib etishida muxim omil - bilim, deb kursatiladi. "Tolibi ilm kilish farzdir". Tolibi ilmga xar bir narsa istigfor aytadi, xatto dengizdagi baliklar xam". Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi, ilmsiz jamiyatda esa jaxolat, razolat xukmronlik kiladi, deyiladi.

Xadislarda kishilarning bir biri bilan dust, tinch-totuv yashash, muruvvatli, mexr shafkatli bulishi kerakligi xakidagi goya xam ilgari suriladi. Bular opa-singil, aka-uka va yakin kishilarga, kushnilariga yaxshilik keltiradi, bu yaxshilik ular urtasidagi totuvlikni keltirib chikaradiki, pirovardida tinch - totuv farovonlikka asoslangan jamiyat tarakkiy etadi.

Xadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-kanoat, shukronalik kabi axlokiy sifatlar uluglansa, ifrosgarchilik, ta`magirlik, ochkuzlik, nafsi xavoga, shaxvoniy xissiyotlarga berilish, baxillik, joxillikkabi ilatlar koralanadi. Bunda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli xay`at-bu tashki kurinishni yaxshilab yurish, iktisod-xar bir xatti xarakatlarda me`yorni kuzlash nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, xadislarda kishilarni baxillik va mol-mulkka xirs kuyishdan saklanish kerakligi, kelajakka umid xis tuygulari xam ifodalanadi. «Birortangiz ekish uchun kulingizda biror kuchatni ushlab turgan vaktingizda kiyomat bulib kolsa-yu, koyim bulishdan ilgarirok uni ekishga kuzingiz etsa, albatta ekib kuying», deyilgani xam xayotga, yashashga, kelajakka umid bilan karashga undaydi (33, 139-140 b).

Xadislarda inson kamolotida eng muxim xislatlardan sanalgan insonning saxovatli bulishga katta e`tibor berilgan. Saxovatli inson jamiyat tarakkiyotiga xam katta xissa kushadi, uning ravnaki uchun jon kuydiradi.

Xadislarda odamlar ana shu xislatlarga kura turt guruxga ajratilgan. Allox T aolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufidaa takvo kiladi va silai raxm kiladi. Ilmi va molidan Allox uchun xak ajratadi. Bu eng afzal urin.

Bir banda bor. Allox unga ilm bergan, lekin mol bermagan. Lekin uning niyati tugri. Agar Allox menga mol bersaydi, falonchiga uxshab sarf kilardim.

Bu ish niyatiga karab teng ajr oladi.

Bir banda bor. Allox unga mol bergan, ilm bermagan. Mol tasarrufida Alloxdan kurkmaydi. Molidan karindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon urindir.

Bir banda bor. Allox mol xam, ilm xam bermagan. U aytadiki, agar Allox menga mol xam, ilm xam bergandaydi, falonchiga uxshab ish kilardim. U shu niyati bilan usha kishiga barobar xisoblanadi. (savob gunoxda) (33,79-bet) Birinchi va ikkinchi guruxdagi ayni saxovatli insonlar katoriga kiritiladi.

Xulk-odob xakidagi xadislarda ezgu insoniy xislatlar uluglanib, gunox sifatidagi ilatlar koralanadi.

Bundan tashkari, musulmonlarga xos udumlar, urf-odatlarga oid xulk-odob koidalari xam bayon etiladi. Turli marosimlarni utkazish tartibi, safar koidalari xam bayon etiladi. Turli marosimlarni utkazish tartibi, safar koidalari, salomatlikni saklash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi xolini surash odobi, kiyinish koidalari, emok-ichmok, suzlashish odobi va xokazolar xakida turli tavsiflar beriladiki, bular bevosita keyingi oddob-axlok xakidagi risolalarga xam asos bula oladi.

Xadislarda jamiyatning, inson nasli rivojlanishiga ta`sir etuvchi muammolarga xam katta e`tibor berilgan. Bu muammolarning eng muximi ekologik muammo bulib, necha asrlardan buyon uz dolzarbligini yukotmagan: ekinlarni ximoya etish, arik-zovurlar utkazib, suv chikarish kabi ezgu ishlar xam rivoyat kilinadi. Masalan, tirik jonvorlarni uldirmaslik (shariatda uldirishga buyurilgan ilon, chayondan bulak), jonvorlarga yaxshilik beradigan narsalardan tozalash (227, 446-xadislarda), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, xovli

saxnlarini toza tutish xakidagi xadislar shunday ibratli xadislardir (33,132 - b).

Shunga kura, etim molini eyish, mol-dunyoga xirs kuyish, yolg'onchilik, giybatchilik, tuxmat, zino, ichkilikbozlik, giyoxvandlik, foydasiz gapni kup gapirish va boshka illatlar gunox xisoblanadi. Ota-ona, keksalar, zaiflar va muxtojlariga gamxurlik, ularni yuklab turish, marxumlarni yaxshi suzlar bilan xotirlash, birov ularning ustidan kulmasligini ta'minlash, omonatga xiyonat kilmaslik kabilar savob sanaladi.

Ma'lumki, inson kamoloti bevosita uning sog'lomligiga xam bog'likdir. Chunki sog'lom insongina xam oilada, xam jamiyatning ravnak topishi uchun faoliyat kursatadigan kishilar bulib etishadi. Xadislarda, umuman, islomda tozalik va poklikka, ruxiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi. «Xak taolo uzi pok, poklikni yaxshi kuradi. Uzi toza, tozalikni yaxshi kuradi. Eshiklarni oldini pokiza tutinglar» (190-xadis, 133, 66-b). Shuning uchun xam nomozdan keyin yuz-kulini yuvish, maxs tortish, oyokni yuvish, mustaxab, ung kul bilan taxorat kilmaslik, burunga suv tortmok, ogizni toza tutish, gusl, tayammum koidalari insonni jismonan pok bulishga yunaltirilganka, bular avloddan-avlodlarga utib, xulk-odob koidaloriga aylanib kolgan.

Inson xar tomonlama etuk bulishi uchun u erkin bulishi kerakligi «Qur'oni Karim» da xam, «Xadisi Sharif» da xam e'tirof etilgan: Allox Taologa amali solixlarning yaxshi kurgani agarki oz bulsa xam davomlisidir.

Allox Taologa farzlardan sung amali solixlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir. «(33-xadis)». Allox uzi kechiruvchi zot, kechirguvchini yaxshi kuradi (191-xadis) kabi xadislar buning dalilidir.

Chunki inson kanchalik kadrlansa, barcha ezguliklar, yaxshiliklar insonga atalsa, uning manfaati uchun xizmat kilsa, inson xam shunga

kura kamol topaveradi, yuksaklikka kutarilaveradi, uz navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat xam rivojlanaveradi.

### **2.3. So'fiylik ta'limoti va uning oqimlar**

So'fiylik ta'limoti VIII asr oxiri - IX asr boshlarida paydo bo'lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So'fiylik butun Sharq ma'naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g'oyalarning shakllanishida muhim o'rin tutdi.

So'fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko'pasrlik ma'naviy hayoti-ning g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limot bo'lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish yo'li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qildi. So'fiylik ko'p qirrali oqim bo'lib, «sof», «yagona» so'fiylik hech qachon bo'lmagan. U turli ko'rinishlar, oqimlar tarzida namoyon bo'lgan. Ammo har biri ham inson takomili muammosiga turlicha yondoshib, uni o'ziga xos yol, qarash asosida talqin etgan. So'fiylik ta'limoti g'oyalariga e'tiqod va amal qiluvchi kishilar so'fiylar deb nomlanadi.

So'fiylik ta'limotida komil inson, bu - dono, oqil, pok niyatli odamdir. So'fiylar ilohiy poklik, nafosat, e'tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi deb bilganlar. Ular mazkur g'oyalarga muvofiq hamda ularga amal qilgan holda haqiqat uchun intilganlar. Aslida esa, komil insonning shakllanishi, bu - ularning ideah, orzui bo'lgan. Shunday bolsa-da, ular komil, etuk va ma'rifatli inson idealini yaratish asosida jaholat, nodonlik, hirs va ta'maga qarshi kurashganlar.

Komillikning mezoni ikki narsa: birinchisi, axloq, ya'ni, mo'min-musulmon, solih inson bo'lish; ikkinchisi - o'z-o'zini tanishdan iboratdir.

VIII asr oxiri - IX asr boshlarida soʻfiylik taʼlimoti paydo boʻldi. Soʻfiylik taʼlimoti va uning mohiyati xususida koʻp tadqiqot olib borilgan boʻlib, mazkur manbalar soʻz yuritilayotgan taʼlimotni oʻrganishda boy manba boʻlib hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari soʻfiylar silsilasi haqida qimmatli merosdir.

Bu oqim VII - VIII asrda arab mamlakatlarida paydo boʻlib, soʻngra boshqa musulmon mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda ham keng yoyildi. Lekin olimlar bu oqimning baʼzi koʻrinishlari islomgacha ham mavjud boʻlganligini taʼkidlaydilar.

Soʻfiylik nazariyasiga koʻra, dunyo, mavjud borliq xudoning mujas-samlanishi. Xudo barcha koʻrinadigan narsalarda, narsalar esa xudoda mavjud. Borliq dunyoviy ruh shaklida butun olamga tarqalgan va xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, shu bois ertami-kechmi u bilan qoʻshiladi.

Amaliy qism axloqiy meʼyor va xulq-atvor qoidalarining muayyan sistemasidan iborat boʻlib, bu meʼyor va qoidalar xudbinlik va shaxsiy manfaatlardan oʻzini tiyishni talab etadi.

Soʻfiylik musulmon Sharqi xalqlarining koʻpasrlik maʼnaviy hayotining gʻoyaviy asosini belgilab bergan taʼlimot sifatida maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy goʻzallikni idrok etish yoʻli, haq va haqiqatni himoya etish vositasi boʻlib xizmat qildi. Soʻfiylik asosan uch oqimga mansub:

Birinchi oqim Mansur Xalloy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylar mansub boʻlgan oqim. Ularning taʼlim berishcha, xudo bar jihatdan komildir, eng oliy goʻzallik, shodlik, baxt uning vaslidadir, foniyl boʻlishidadir. Inson oʻzini haqiqatga - xudoga nisbatan hech deb bilishi kerak. Inson yashayotgan hayot haqiqiy baxt-saodat bera olmasligi, asl, haqiqiy osudalik, baxt-saodat faqat xudoda, uning vaslida ekanligi, u bilan vahdat tashkil etish, yaʼni uning vasliga etish kerakligi xususidagi

qarash-ni ilgari suradilar. Lekin ular taqvoni riyodan ajratib, oliy haqiqatga intilishni jannat va do`zax haqidagi intilishlardan farq etib borishlari bilan ajralib turadilar. Insonning ichki kechinmalari holatiga ahamiyat berib, chin ixlos va sidqni birinchi o`ringa qo`yadilar. So`fiylar qalbni bar qanday xudbinlik, riyo, ta`magirlik, hasham va mol-dunyoga o`chlikdan tozalab borish bilan oliy haqiqat ko`zgusiga aylantirishni, ya`ni poklikni asosiy maqsad qilib qo`yadilar.

So`fiylar inson ma`naviy-ruhiy komillikka erishish yo`lida quyidagi to`rt bosqichni o`tishi kerak deb hisoblaydilar.

Birinchi bosqich-Shariat. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat - qonun bolib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich -Tariqat. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma`naviy muhabbatni takomillashtirib, xudo to`g`risida o`ylash, ya`ni o`zdan kechish, ko`ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich - Ma`rifat. Hamma narsa, butun borliqning asosi xudo ekanini, o`zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg`un ekan-ligini bilish va anglash. Mazkur holatda odam uchun kibru havo, man-manlik hamda shon-shuhrat be`mani bo`lib ko`rinadi. Shunda u orif, ya`ni bihmli va xudoni tanigan inson bo`ladi.

To`rtinchi bosqich - Haqiqat. Mazkur bosqichda so`fiy xudoning dargohiga etishadi, vasliga vosil bo`ladi, u bilan birlashadi, vahdat (ta-vahhud) tashkil etadi va shu asosda inson foniy, ya`ni «anal-haq» bo`la oladi.

**Bu oqim tarafdorlaridan birinchi** so`fiy eronlik Abu Yazdit Tayfur al-Bistomiydir (875 -yili vafot etgan).So`fiy Husayn ibn Mansur Halloj esa o`zining xudo bilan «qo`shilganini» isbotlash uchun «Anal-Haq» («Men haqman», «Men xudoman») deb da`vo qiladi hamda o`z ta`limotini ilgari suradi. U Qur`onning muqaddasligi va Muhammad alayhis-salomning payg`ambar ekanligini inkor etishga uringanlikd`a

ayblanib, xurofotchilar tomonidan qatl etiladi. Zero, ushbu ta'limot saroy ahli va jaholat bilan yaqinlashgan ba'zi kalom va falsafa ilmi ulamolariga yoqmad, oqibatda qalbni oliy haqiqatga erishish yo'lida poklash maqsadini ilgari surgan ezgu ta'limot bid'at deya baholandi.

**So'fiylikning ikkinchi oqimiga** mansub bo'lgan so'fiylar birinchi oqim namoyandalari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni qabul qilganlar, biroq mazkur qarashlarni islom ta'limotida targ'ib etilgan tartib-qoidalarga moslashtirganlar. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy (1058-1111 -yillar) hamda Ahmad Yassaviy sanaladilar.

Imom G'azzohy so'fiylik ta'limotining asoschilaridan biri bo'lib, «Hujjat-ul-islom» laqabini olgan. Alloma to'g'risida so'z yuritilganda, hatto «Qur'on yo'qolib qolsa, uni G'azzohyning asarlari bo'yicha tiklash mumkin» degan fikrlarni bildirganlar. Imom G'azzoliy tomonidan yaratilgan «Tahofut al-falosifa» («Faylasuflarni rad etish»), «Kimyoi saodat» («Saodat kimyosi»), «Ixya ulum ad-din» («Diniy ilmlarni tiriltirish») kabi islom ilohiyoti sistemasining shakllanishiga zamin hozirlagan asarlar alloma faoliyati-ga nisbatan shunday yuksak baho berilishiga sabab bo'lgan.

Imom G'azzoliy inson kamolga etishi, ya'ni xudo vasliga etishi uchun ma'lum shartlarni bajarib, muayyan yo'lni bosib o'tishi kerak, deydi. Har bir so'fiy islom talablari- qonun-qoidalari, aqidalari hamda Qur'onni haqiqat deb bihb, unga tobe bolishi va ularga so'zsiz amal qilishi yuqorida qayd etilgan yo'lning bosib o'tish shartlaridir, deya uqtiradi.

Alloma so'fiylik nazariyasining mohiyati xususida so'z yuritib, ular haqiqatni mantiqiy mulohazalar asosida emas, balki ichki kechinmalar vositasida bevosita hissiy tarzda anglaydi, deb ko'rsatadi. So'fiylarning ichki holatini nazariy bilimlarni egallash, suhbatlar tashkil etish, manbalarni o'qish orqali emas, balki ularning turmush tarzini qabul qilish orqaligina anglash mumkin. Mazkur yo'l ko'ngilni his bilan

yaratilgan ma`lumotlardan ozod etadi va ana shunda ma`rifat manbai paydo bo`ladi, dunyo ravshan bo`ladi. O`rganish yo`li bilan emas, balki o`zdan chekinish, ma`naviy vujudning qaytadan yaralishi tufayligina oxirgi chegaraga erishish mumkinligi alloma qarashlarining asoslari sifatida namoyon bo`ladi.

**So`fiylikning uchinchi oqimi** Naqshbandiya ta`limotining yaratilishi bilan bog`liqdir. Mazkur oqim XIII asrning oxirlarida shakllana bordi. XIV-XV asrlarda esa Markaziy Osiyoda ustuvor mavqega ega bo`lgan ta`limotga aylandi. Naqshbandiya tariqati rivojlangunga qadar, Markaziy Osiyoda Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan yassaviya tariqati hukmron ta`limot edi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, hadis ilmini o'rganish nafaqat yoshlar uchun balki butun musulnom xalqlari uchun "Qur'oni Karim" dan keyingi ikkinchi o'rinda turadi va muqaddas hisoblanadi.

Hadislarda musulmonlarga xos udumlar, urf-odatlariga oid xulq-odob koidalari xam bayon etiladi. Turli marosimlarni utkazish tartibi, safar koidalari xam bayon etiladi. Turli marosimlarni utkazish tartibi, safar koidalari, salomatlikni saklash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi xolini surash odobi, kiyinish koidalari, emok-ichmok, suzlashish odobi va xokazolar xakida turli tavsiflar beriladiki, bular bevosita keyingi oddob-axlok xakidagi risolalarga xam asos bula oladi.

Xadislarda yomon ishlar, ilatlar, yomon-xatti-xarakatlar, «gunox» sifatida koralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaki uchun kilinadigan yaxshi, ezgu xatti-xarakatlar, faoliyati «savob» tarzida olkishlanadi.

Yosh- avlodni tarbiyalashda hadislardan foydalanish ijobiy natajalarni beradi.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997-
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Asarlar nutqlari asosida. T. Sharq.1999-y.
3. I.A.Karimov. Buyuk kelajak sari. T. 1998-y
4. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T. 1997-y.
5. O`zbekiston umumta`lim maktablarining konsepsiyasi.
6. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 1992-y.
7. A.Q. Munavvarov. Pedagogika. T. O`qituvchi. 1996-y.
8. I.Y.Tursunov, U.N.Nishonova. Pedagogika kursi. T. O`qituvchi. 1997-y.
9. O`zbek pedagogikasi. T. O`qituvchi. 1995-y.
- 10.O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. T. 1993-y.
11. T.Ruziyeva. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar va tamoiylar. T. 2001-y.
12. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi. T. 2006-y.
13. Asqar Zununov. Pedagogika tarixi. T. 2004-y.
14. K.Hoshimov. Pedagogika tarixi. T. 2005-y.
- 15.Asqar Zununov, M.Xayrullayeva, B.to`xtayeva, N.Xotamova, Pedagogika tarixi. T. 2003-y.